

sp 1

Vatan yagonadir,
Vatan bittadir!



N:5 (66962)

2014-yil 3-fevral

TONG YULDUZI

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqa boshlagan

O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlar gazetasi

ISSN - 2010-6092

BARKAMOL YOSHLAR - ERTAMIZ ISHONCHI



Xabaringiz bor, o'tgan hafta Oqsaroyda O'zbekiston Bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasi Homiylik kengashining navbatdagi yig'ilishi bo'lib o'tdi.

Yurtboshimiz Jamg'arma faoliyat boshlagandan buyon o'tgan yillarda erishilgan yutuqlar, bu borada amalga oshirilgan keng ko'lamli ishlarning ahamiyati va natijalari xususida atroflicha so'z yuritdi.

(Davomi 7-betda)



YOSH HUNARMANDLAR TUHFASI

Jismoniy imkoniyati cheklangan bolalarning hunar o'rganishi, jamiyatda munosib o'rin egallashi, tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishini qo'llab-quvvatlash maqsadida, poytaxtimizdagi 101-maxsus eshitish a'zolarida nuqsoni bor bolalar maktab-internatida «To'quvchilik» yo'nalishi bo'yicha maxsus kurs tashkil qilindi. Ayni paytda «Mohir hunarmand» ijtimoiy maktab loyihasining ushbu yo'nalishida internatning 12 yoshdan 18 yoshgacha bo'lgan 15 nafar o'quvchi-yoshlari bepul ta'lim olmoqdalar. To'garakda yoshlarga mohir murabbiy Muqaddas Umaraliyeva to'quvchilikdan saboq berib, o'quvchilarning nazariy va amaliy bilimlarni o'zlashtirishiga ko'maklashmoqda.

Kuni kecha poytaxtimizdagi «Urush va mehnat faxriylari uchun respublika pansionati»da bo'lib o'tgan tadbirida to'garak a'zolari o'z qo'llari bilan to'qigan buyumlarini faxriylarga sovg'a qilishdi. Otaxon-u onaxonlar yuzidagi mamnuniyatni ko'rib, o'quvchilar kimgadir quvonch ulasha olganlaridan shod bo'lishdi. Mazkur uchrashuv imkoniyati cheklangan yoshlar qalbida hunar o'rganishga bo'lgan ishtiyoqni yanada kuchaytirsa, ajabmas.

O'z muxbirimiz



NAVOIY VA SOG'LOM AVLOD



Yangi 2014-yil Prezidentimiz tomonidan «Sog'lom bola yili» deb nomlandi. Bu mamlakatimizda o'sib kelayotgan yosh avlodga katta e'tibor berilayotganining yana bir yorqin namunasidir. Mustahkam oila qurish, bolalarni yoshligidan aqlan va jismonan sog'lom, komil inson qilib tarbiyalash xalqimizga xos fazilatdir. Mutafakkir bobomiz Alisher Navoiyning asarlarida ham farzand va uning tarbiyasiga katta e'tibor qaratilgan.

«Farhod va Shirin» kabi yirik asarimi, hikoyalar, g'azal yoki she'rleri bo'lsinmi, buyuk bobokalonimiz yosh avlodni halollik, rostgo'ylik, poklikka undaydi. Masalan, Navoiyning «Farhod va Shirin» dostonida Farhodning ota-onasi uni go'dakligidan sog'lom, aqlli, teran fikrlaydigan qilib tarbiyalaganlari, tabiat, mantiq, riyoziyot (matematika),

«Har kuni ularning xizmatini qilib, hurmatini joyiga qo'ygan farzand baxtli, saodatli bo'ladi», deydi shoir. Buning isboti sifatida quyidagi misralarni bitadi:

*Boshni fido ayla, ato qoshig'a,
Jismni qil sadqa ano boshig'a.
Tun kununga aylagali nur fosh,
Birini Oy angla, birisin Quyosh.*



Bu purma'no fikrlar hozirda ham ahamiyatini yo'qotgani yo'q. Aziz bolajonlar! Navoiy bobomiz asarlarini mehr bilan o'qisangiz, purma'no hikmat, dono maslahatlariga amal qilsangiz, kelajakda, albatta, jismonan sog'lom, baquvvat, aqlan yetuk, teran fikrlaydigan komil inson bo'lib yetishasizlar.

adabiyot kabi fanlardan chuqur saboq berib, bir necha hunar o'rgatganlari haqida zavqlanib yozadi:

*Jahonda qolmadi ul yetmagan ilm,
Bilib tahqiqini kasb etmagan ilm.*

Shuningdek, mazkur asarda Farhod aqlangina emas, jismonan ham baquvvat bo'lib o'sgani, suvda suzish, chavandozlik, qilichbozlikda mohirligi, o'n yoshida yigirma yoshli yigitning kuch-quvvatiga ega bo'lganligi ibrat qilib yozilgan. Farhod yoshlik chog'laridanoq aqlan va jismonan yetuk shaxs bo'lib ulg'aygani bois, keyinchalik hayotida uchragan qiyinchilik, og'ir sinovlarni bardosh bilan yengib o'tadi va maqsad-muddaosiga erishadi. U uzoq safari davomida me'mor Boniy, naqqosh Moniy, toshlarosh Qoran kabi yaxshi insonlar bilan do'stlashadi, ularning hunarlarini o'rganib, maslahatlariga qat'iy amal qiladi.

Alisher Navoiy Farhod nimaga erishmasin, eng avvalo, namunaviy xulqi, tarbiyasi, olgan ilm-u amali, o'rgangan hunari bois yuksak muvaffaqiyatlarini qo'lga kiritganini ushbu ajoyib asarida yozib qoldirgan. Shuningdek, Navoiy bobomiz inson aqli, idroki va tafakkuri qanchalik kuch-qudratga ega ekanligini ta'riflab, shunday yozadi:

*Har ishki qilmish odamizod,
Tafakkur birla bilmish odamizod.*

Buyuk mutafakkir shoir «Mahub ul-qulub», «Hayrat ul-abror» kabi asarlarida ham sog'lom farzand tarbiyasida oilaning, ayniqsa, onaning o'rni, roli juda muhim ekanini haqida yozadi. Alisher Navoiy mazkur asarlarida farzandlar ota-onalarini doimo hurmat qilishlari, e'zozlashlari, mehr-oqibatli bo'lishlari lozimligini chuqur va atroflicha singdirgan. «Mahub ul-qulub» asarida esa ota-onani Quyosh va Oyga o'xshatadi.

Yusuffjon HAMDAMOV,
Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti
jurnalстика fakulteti dotsenti



Sirdaryo viloyati, Guliston shahridagi 5-umumta'lim maktabi o'quvchilari ustozlari boshchiligidagi g'azal mullkining sultoni Alisher Navoiy tavallud topgan kuniga bag'ishlangan tadbirga qisqin tazyorgarlik ko'rishmoqda.

TO'G'RILIKNING MUKOFOTI

Hazrat Alisher Navoiy asarlari barcha davrlar talabiga to'la javob beradi. Shoirning har bir ijod namunasi dur-javhar, bebaho xazina. Bu ma'naviy xazina besh asrdirki, insonlarga foyda keltiradi, qalbiga ezgulik uruq'ini ekadi, ruhiyatini boyitadi.

Navoiyning o'lmas so'zi bolalar tarbiyasi, umuman, insoniyatning ma'nani kamol topishi uchun poydevordir. Uning

*Ki har kim ayon etsa yaxshi qiliq,
Yetar yaxshiliqdin anga yaxshiliq...*

kabi misralardan ko'ngil yayraydi. Bundan «Yaxshilikni odat qilgan odam yaxshilik ko'radi» mazmunidagi xalqona, sodda, ammo ulkan bir haqiqat ifodasini anglab, shoirning aql-u zakosiga qoyil qolamiz.

Navoiy asarlarida odob-axloq o'zak masala. Deylik, yolg'onchilikning salbiy oqibatlarini, to'g'riso'zning hikmati va foydasi ta'kidlanadi. Yolg'onchi odamning obro'si elda tushib boradi. Aksincha, va'dasiga vafo qiluvchi, to'g'riso'z inson hurmatga loyiqdir. Navoiy shu mavzuga mos bir rivoyatni yozadi: Ma'lum bo'lishicha, uzoq o'tgan zamonda bir shoh uyining o'rtasida chiroyli ustuni bor bir koshona qurishga kirishibdi. Topshiriqqa binoan xizmatchilari yangi uy uchun ustunga loyiq, to'ppa-to'g'ri o'sgan baquvvat daraxt izlay boshlabdi. Oxiri topibdilar. Ammo uning egasi kekxa bir kampir ekan. Yog'ochi uchun o'n baravar, yuz baravar va hatto ming baravar haq taklif qilishsa ham, kampirning ko'ngli to'lmabdi.

Shunda xizmatchilar yog'och og'irligida tillo berib, kampirni o'z shartlariga zo'rg'a ko'ndirishibdi. Imoratga mos ustun – yog'ochni olib ketishibdi. Nihoyat, koshona qurib bitkazilibdi. Ichkarisi ham, yog'och ustun ham ko'zni qamashtiradigan juda qimmatbaho zarli naqshlar bilan bezatilibdi.

Oradan yillar o'tibdi. Kunlardan bir kuni o'sha dongdor imoratni tomosha qilish uchun kelgan kampir qadrton yog'ochini quchoqlab yiq'labdi. So'ngra, shukrona aytib: «Sen to'g'ri o'sganing uchun o'zingni ham, meni ham tilloga ko'mding», debdi.

Alisher Navoiy asarlari tarkibida bunday o'nlab, yuzlab ibratli hikoyat va rivoyatlar borki, ular har qanday yoshdagi o'quvchini ma'rifatga, ibratga chorlaydi. Hazrat Navoiydan meros qolgan ma'naviy ozuqadan, odob-axloq xazinasidan bahramand bo'lish har kimning o'ziga bog'liq. Bahramandlik sharti bitta – Navoiyni o'qish va uqish.

Navoiyni o'qish, shoir dardini, yuragini anglashga harakat qilish har birimiz uchun doimiy bir mashg'ulot bo'lmog'i lozim.

Bahodir KARIM

Buyuk bobokalonimiz Alisher Navoiy milliy adabiyotimizning tengsiz namoyandasi, millatimiz g'ururi, sha'n-u sharafini dunyoga yozgan benazir so'z san'atkoridir.

IFTIXOR TUYG'USI JO'SH URADI

Ta'bir joiz bo'lsa, olamda turkiy va forsiy tilda so'zlovchi biror-bir inson yo'qki, u Navoiyni bilmasa, sevmasa, bu ulug' zotga ehtirom ko'rsatmasa. Bobomiz o'z ijodi orqali mehr-muhabbat, vafo va sadoqat, odob-axloq, adolat, to'g'riso'zlik, iymon-e'tiqod singari ijobiy fazilatlarining mohiyatini mukammal ochib bergan. Ayniqsa, uning «Hayrat-ul-Abror» dostoni ham ma'naviy, ham tarbiyaviy ahamiyati bilan ijodida alohida o'rin tutadi.

Alisher Navoiyning tarix va bashariyat oldidagi ulug' xizmatlaridan yana biri shundaki, u adolat tuyg'usini har bir inson, har qaysi xalq va millat intilib yashaydigan oliy mezon darajasiga ko'tardi, insoniyatni adolatni asrab-avaylashga chorladi. Hazrat bobomiz ijodini, yaratgan bir-biridan mazmundor asarlarini o'rganar ekanmiz, qalbimizda milliy iftixor tuyg'usi jo'sh uradi.

Dildora ESHMURODOVA,
poytaxtimizdagi 227-umumta'lim maktabining
ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

INGLIZ TILI SEVIMLI FANIM

Men ingliz tili faniga juda qiziqaman. Maktabimizdagi mazkur fan xonasi juda chiroyli jihozlangan: mashhur ingliz adibi Vilyam Shekspirning hayoti va ijodiga oid turli rasmlakattlar, grammatik va fonetik qoidalar, Buyuk Britaniya xaritasi shular jumlasidan.

Bu fandan saboq berayotgan o'qituvchimiz Shahlo opa Nurmuhamedova esa juda fidoyi, izlanuvchan ustozlardan. Yaqinda ularning til o'rganishga doir she'riy mashqlarini «Tong yulduzi» gazetasi «Ingliz tilini o'rganamiz» sahifasida o'qib, juda xursand bo'ldik. Ingliz tili darslarida ushbu sahifada berilyotgan turli mashq va boshqotirmalardan foydalanaymiz. Men darsdan keyin maktabimizda tashkil etilgan ingliz tili to'garigiga ham qatnashaman. Fursatdan foydalanib, kelajakda yetuk mutaxassis bo'lishimiz, dunyoni tanishimiz uchun chet tillarini o'rganishimizga qaratilayotgan katta e'tibor, sharoitlardan mamnun ekanligimizni bildirmoqchiman.

Feruza
ABDULLAYEVA,
Buxoro viloyati,
Shofirkon tumanidagi
20-maktabning
8-«A» sinf o'quvchisi



TIL BILGAN — EL BILADI

Har yili an'anaviy tarzda o'tkaziladigan «Bilimlar bellashuvi» bizning maktabimizda ham uyushqoqlik bilan bo'lib o'tdi.


Men ham maktabdoshlarim singari o'zlashtirgan bilimlarimni sinash maqsadida, ingliz tili fanidan bellashuvda qatnashdim va faxrli 2-o'rinni egalladim. Bu muvaffaqiyatimda, albatta, ustozim Gulbahor opa Ahmedovanning xizmatlari beqiyos. Men kelajakda xorijiy tillarni mukammal o'rganib, ustozim ishonchini oqlayman.

Ma'suma SALOHIDDINOVA,
Farg'ona viloyati, O'zbekiston tumanidagi
4-maktabning 8-«A» sinf o'quvchisi

Ustoz haqida so'z

Quyosh o'z nurlarini barchaga barobar sochadi. U tog' yo tekislik, chamanzor yo sahro deya ajratib o'tirmaydi. Shuning uchun ham uni butun borliq sevadi.

QALBIMIZNI YORITGAN QUYOSHI



Ustozlarimizni saxiy quyoshga mengzashimiz ham bejiz emas. Negaki, quyosh o'z nurlari bilan butun borliqni yoritadi, ustoz ilm ziyosi bilan inson qalbini yoritadi.

Ana shunday mehrirdaryo ustozlarimizdan biri, yosh avlodga bilim berishdek sharaflil ishga o'z hissasini qo'shib kelayotgan qoraqalpoq tili o'qituvchimiz Adilbay Reynazarov haqida so'z aytmoqchiman. Bu insonning kasbiga fidoyiligi, mehnatsevarligi, jonkuyarligi tahsinga loyiq. Ustoz bizga

ilm yo'li sermashaqqat ekanini, bu yo'lda aslo yalqovlik qilmasligimiz lozimligini uqtiradi. Uning «Ilm — bu mashaqqat. Unga erishish uchun ter to'kasan, tirmashasan, to'xtamaysan», degan so'zlari g'ayratimizga g'ayrat qo'shadi. Qoraqalpoq'iston Respublikasi, Xo'jayli tumanidagi 69-maktabning qoraqalpoq tili fani o'qituvchisi Adilbay Reynazarovning fan olimpiadalarida g'olib bo'lgan shogirdlari juda ko'p. Men ham ustozimning mehnatlarini oqlashga, kelajakda yurt koriga yaraydigan inson bo'lishga va'da beraman.

Dilafroz AYTBAEVA,
Qoraqalpoq'iston Respublikasi,
Taxiatosh shahar «Kamolot» YOIH a'zosi

HAVASIM KELDI

Men uch yildan buyon ona tili fanidan «Bilimlar bellashuvi»da qatnashaman.

Bu bellashuv bizni yanada ko'proq o'qishga, bilimimizni boyitishga undamoqda. Bellashuvda ingliz tili fani bo'yicha ishtirok etib, yuqori ball to'plagan tengdoshlarimga juda havasim keldi. Endilikda men ham xorijiy tillarni puxta o'rganishga kirishdim. Qo'shimcha adabiyotlar o'qib, so'z boyligimni oshiryapman. Zero, bugun yurtimizda biz yoshlarning o'z iqtidorimizni namoyon etishimiz uchun imkonlar eshigi keng ochilgan.

Sabina NURMUHAMMEDOVA,
Surxondaryo viloyati, Sherobod tumanidagi 28-maktab o'quvchisi

BELLASHUVLAR DO'LAYERSIN!

Maktab o'quvchilari o'rtasida turli tadbirlar, kecha va uchrashuvlar, sport musobaqalarining o'tkazib turilishi quvonarli holdir. Bunday tadbirlar o'quvchilarning bilim va salohiyatini boyitadi, ularni sog'lom, chaqqon, epchil bo'lib voyaga yetishlariga yordam beradi.

Yaqinda poytaxtimizning Yunusobod tumanidagi 302-maktabda «Quvnoq startlar» musobaqasi o'tkazildi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini ommaviy sportga jalb qilish maqsadida o'tkazilgan quvnoq estafeta o'yinlarida 3-4-sinf o'quvchilaridan iborat sakkiz jamoa 5 ta shart bo'yicha bellashishdi. «Qirq tosh», «Mergan» kabi milliy o'yinlari, o'rin almashish, tennis to'pini olib yurish, qoplargacha uzoqdan kim ko'p to'p tashlash kabi musobaqalar juda qiziqarli tarzda o'tdi. Maktab rahbari Feruza Tursumetova,

ma'naviy-
ma'rifiy ishlar
bo'yicha rahbar
o'rinbosari
Nodira

Yusupova, metod birlashma boshlig'i Saodat Jumayeva musobaqaga hakamlik qilishdi. Bellashuv maktab jismoniy tarbiya o'qituvchilari Jasur Sitov, Mannop Odilov boshchiligidagi o'tkazildi. Musobaqa so'ngida g'oliblar aniqlanib, maktab



ma'muriyati tomonidan qimmatbaho sovg'alar bilan taqdirlandilar.

Muzaffar AHMEDOV

Aziz o'quvchilar, Sizlardan kuniga o'nlab xatlar olamiz. Respublikamizning turli burchaklaridan, olis-olis tuman va qishloqlaridan kelayotgan bu maktublarning ma'no-mazmuni ham turlicha. Qay biringiz fan, ta'lim sohasida qo'lga kiritayotgan muvaffaqiyatlaringiz haqida yozsangiz, yana biringiz sportda erishayotgan yutuqlaringizni suyunchilaysiz. Bir tengdoshingiz o'z ijodidan namunalar yo'llasa, yana biri iqtidorli do'sti, dugonasi haqida faxrlanib yozadi.

Yaqinda Surxondaryo viloyatining Termiz shahridagi 12-Mehribonlik uyi negizida tashkil etilgan umumta'lim maktabi o'quvchilaridan bir dasta maktublar oldik. Gazetamizning har bir sonini katta qiziqish bilan o'qib boradigan bu o'g'il-qizlar o'z qiziqish va intilishlari, sevimli mashg'ulotlari haqida yozib yuborishibdi.



BIZGA MAKTUB YO'LLABSIZ...

Mazkur bilim dargohi haqida qisqacha ma'lumot:

12-Mehribonlik uyi 1928-yilda Surxondaryo viloyatining Boysun tumanida tashkil topgan. Shu yillar mobaynida bu yerda ota-ona qarovisiz qolgan bolalar ta'lim-tarbiya olib, hayotda o'z o'rinlarini topishgan.

Bugungi kunda Dilbar opa Suvonova rahbarlik qilayotgan bu maskanda 79 nafar o'g'il-qiz tarbiyalanmoqda. Ular puxta bilim olish, kasb-hunar

sirlarini egallash bilan birga sportning qo'l jangi, karate, milliy kurash yo'nalishlari bo'yicha to'garaklarga qatnab, o'z salomatliklarini mustahkamlamoqdalar. Shuningdek, ko'plab sport bellashuvlarida muvaffaqiyatli ishtirok etib, maktabi sharafini munosib himoya qilib kelishyapti. Jumladan, o'tgan yili sportning qo'l jangi turi bo'yicha o'tkazilgan viloyat ochiq chempionatida 21 nafar tarbiyalanuvchi 2-, 3-o'rinni egallashdi. «Alpomish» sport majmuasida o'tgan qizlar o'rtasida shahka, o'g'il

bolalar o'rtasida milliy kurash bo'yicha bo'lib o'tgan musobaqalarda ham 60 dan ziyod tarbiyalanuvchilar ishtirok etib, faxrli o'rinni egallashdi.

Yaqinda karate sport turi bo'yicha o'tkazilgan viloyat ochiq chempionatida qatnashgan 6 nafar yosh sportchidan 1 nafari 1-, 1 nafari 2-, 2 nafari 3-o'rinni egallab, ustozlari ishonchini oqlashdi.

Bu yutuqlarda jismoniy tarbiya o'qituvchisi Sergey Ivanovich Nizomovning hissasi katta.

Humoyun MAHMUDOV, 8-«A» sinf o'quvchisi:

ISHTIYOQ KUCHLI BO'LSA...

— Men bu o'quv yilini zo'r g'ayrat bilan boshlagan edim. Maqtanish emas-ku, astoydil o'qidim, izlandim. Birinchi va ikkinchi chorakni muvaffaqiyatli yakunladim. Baholarim yaxshi va a'lo. Hatto ta'til kunlarida ham bekor o'tirganim yo'q. Sevimli tarix fanimdan to'garakka qatnab, bilimimni boyitdim. Eng uzun hisoblanadigan 3-chorakda ham puxta bilim olib, «Bilimlar sinovi»da o'zimni imtihon qilmoqchiman.

Farangiz FURUNZIYEVA, 9-«A» sinf o'quvchisi:

MAQSAD BILAN YASHAYLIK!

— Umr oqar daryo, deb bejiz aytishmaydi. Shunday ekan, uning har onidan unumli foydalanaylik, maqsad bilan yashaylik, aziz tengdoshlar.

Men har kuni kechqurun ertangi kunim uchun reja tuzib, ularni amalga oshirishga harakat qilaman. Darsdan bo'sh vaqtlarimda tarbiyachilarimizga yordam beraman, uy yumushlariga qarashaman, to'qiyman, she'rlar yozishni mashq qilaman. Quyidagi she'rimda ushbu holatni aks ettirishga harakat qildim:

Vatan

*Vatan, behohasan, beqiyos o'lkam,
Fasllar ichra yashnaysan ko'rkam,
Bag'ringda muhabbat, mehr mujassam,
Ko'z ochib ko'rganim o'zingsan, Vatan!*

*Quchog'ingda baxtli yashayapmiz biz,
Iqtidorli, dono, zukko o'g'il-qiz,
Ajdodlarga munosib bo'laylik voris,
Shunda bizdan rozi bo'lg'in sen, Vatan!*

Abbosbek NURBOYEV, 3-«A» sinf o'quvchisi:

QUVONCHLI NATIJALAR

— Mening qiziqishlarim juda ko'p. Darsdan bo'sh vaqtlarimda ertak kitoblarini o'qiyman, turli sport musobaqalariga qatnashaman. Ayniqsa, sayr-u sayohat jon-u dilim. Bizni muqaddas qadamjolarga, hayvonot va istirohat bog'lariga olib boradigan mehribon ustoz va tarbiyachilarimizdan behad minnatdormiz. Bunday g'amxo'rliklarga munosib bo'lish uchun zo'r ishtiyoq bilan o'qiyapmiz, tadbir va kechalarda qatnashyapmiz.

Yaqinda «Yoshlar orasida huquqbuzarliklarning oldini olish» mavzusida davra suhbat tashkil etildi. Tadbirdan o'zimiz uchun juda ko'p kerakli ma'lumotlar oldik. Shuningdek, «Yo'l qoidasi, umr foydasi» mavzusidagi insholar tanlovida qatnashib, yaxshi natijalarga erishdim.

Shahnoza PRIMQULOVA, 8-«A» sinf o'quvchisi:

BIZDA IMKONLAR BISYOR

— Bizga yaratib berilgan shunday shart-sharoitlar, imkoniyatlar uchun Yurtboshimizdan behad minnatdormiz. Ulardan oqilona foydalangan holda bilimlarimizni yanada boyitishga, o'z iqtidor va salohiyatimizni yuzaga chiqarishga harakat qilaymiz. Har birimiz hozirdanoq biror kasbga mehr qo'rganmiz. Bir sinfdoshim o'qituvchi, boshqasi muhandis, yana biri tikuvchi bo'lishni maqsad qilishgan. Men esa kelajakda yetuk jurnalist bo'lishni orzu qilaman. Buning uchun juda ko'p o'qishim, dunyoqarashimni boyitishim, chet tillarini mukammal egallashim lozimligini ham yaxshi bilaman. Ustozlarim ko'magi, dono maslahat va o'gitlari, iqtidorim, salohiyatim va, albatta, o'zimga bo'lgan ishonch meni maqsad sari dadil yetaklaydi.

Jahongir ALMURODOV, 5-«A» sinf o'quvchisi:

O'LKAMIZ TARIXINI O'RGANAMIZ

— Men yurtimizning baxtli bolalaridan biriman, desam, mubolag'a qilmagan bo'laman. Yashashimiz, o'qishimiz, sog'lom bo'lib voyaga yetishimiz uchun barcha sharoitlar yetarli. Har bir kunimiz tarbiyachi va o'qituvchilarimiz sa'y-harakatlari bilan juda maroqli, mazmunli o'tadi.

Yaqinda ustozimiz bizni Termiz shahridagi Arxeologiya va o'lkashunoslik muzeylariga olib bordilar. U yerda ko'plab tarixiy qo'lyozmalarni, ajdodlarimiz tomondan yasalgan qadimiy buyumlarni, neandertal bola suyak qoldiqlarini, shaxmat donachalarini ko'rdik, yurtimiz o'tmishiga oid ko'plab ma'lumotlar bilan tanishdik. Al-Hakim at-Termiziy ziyoratgohiga qilgan sayohatimiz ham juda maroqli bo'ldi. Ertasi kuni ustozimiz Mansur aka o'tkazgan ochiq darsda olgan taassurotlarimiz bilan o'rtoqlashdik. «O'tmishsiz kelajak yo'q», deb bejizga aytilmagan ekan. Bunday sayohatlar tufayli o'lkamiz tarixini o'rganishga bo'lgan qiziqishimiz yanada ortdi.

Durdona

ABDUHAMIDOVA,
6-«A» sinf o'quvchisi:

BEG'UBOR FASL

— O'smirlik — inson umrining eng beg'ubor, orzularga limmo-lim fasli. Unga juda ko'p chiroyli ta'riflar beriladi. Men uchun esa o'smirlik katta imkoniyat. Bu davrda puxta bilim olishimiz, sport bilan shug'ullanib, salomatligimizni yanada mustahkamlab borishimiz, xorijiy tillarni o'rganishimiz, to'garaklarga qatnab, kasb-hunar sirlarini egallashimiz kerak. Zero, buning uchun yurtimizda barcha sharoitlar muhayyo. Bizda maqsad, istak, ishtiyoq, shijoat bo'lsa, bas. Ustozlarimizdan olgan bilimlarimizni bilimlar bellashuvlarida sinovdan o'tkazib, tadbirlarda mustahkamlab borishimiz lozim. Biz ta'lim maskanimizda o'tadigan bir-biridan qiziqarli tadbirlarda, jumladan, «Kimning xati chiroyli?», «Ona tilim — jon-u dilim» kabi tanlov va ochiq darslarda bilimlarimizni boyitib, «Siz qonunni bilasizmi?», «Konstitutsiya — baxtimiz qomusi», «Voyaga yetmaganlar orasida huquqbuzarliklarni oldini olish» mavzularidagi davra suhbatlari orqali o'z burchimiz, haq va huquqlarimizni anglab boryapmiz. Bir so'z bilan aytganda, kelajagimizga poydevor quryapmiz.

TAHRIRIYATDAN:

Mana, qadri o'quvchilar, termizlik bir guruh tengdoshlaringiz hayotidan lavhalar o'qingiz.

Xo'sh, sizning maktabingizda qanday yangiliklar bor? Nimalarga qiziqasiz, qanday orzu-niyatlar bilan yashayapsiz? «Yangiliklar ko'p, orzular mo'l», deysizmi, unda darhol qo'lingizga qog'oz, qalam oling va ular haqida bizga, albatta, yozib yuboring.



HIKMAT IZLAB YASHAYDI

Ijod - sehrli olam. U har kimga har xil ta'sir qiladi: kimdir yoshiga nisbatan tezroq ulg'ayib qolgandek bo'lsa, yana kimdir bolagalb bo'lib qoladi.



Xorazm viloyati, Yangiobozor tumanidagi 15-maktabning 7-sinfida tahsil olayotgan Zulfia NISHONOVA ijodning sirlari dunyosiga hayrat va hayajon ila qadam qo'yayotgan yosh qalamkashlardan biri. U tengdoshlari orasida vazminligi, og'ir-bosiqiligi bilan ajralib turadi. Atrof-olamga, voqea-hodisalarga o'zgacha nigo bilan qaraydi, borliqdan hikmat izlaydi. Topganlarini she'rga soladi, har bir so'z, vazn, qofiya ustida uzoq izlanadi. Ukasi Murodbek va singlisi Shukurjonning sho'xliklaridan zavqlanib, qo'lga qalam oladi.

– Kelajakda ustozim – ona tili va adabiyot fani muallimasi Nigora opa Qo'chqorovadek mehdariyo ijodkor-pedagog bo'lmoqchiman, – deydi orzulari qalbi kabi beg'ubor ijodkor qizimiz biz bilan suhbatda. – Biz yosh qalamkashlarni maktabimiz qoshidagi «Ijodkor» to'garagida yana bir fidoyi muallimimiz Sevara opa Saidova ham ijod sirlari bilan tanishtirib boradi. Ustozlar ko'magida she'riyat olamiga oshno bo'larkanmiz, ijodga oshufta ko'ngillarimiz go'zal orzularga limmolim to'lmoqda.

Yosh qalamkashning beg'ubor niyatlari ijobatiga biz ham tilakdoshmiz.

Komila TURG'UNOVA,
Toshkent bank kolleji o'qituvchisi

Fotima NORQULOVA poytaxtimizning Chilonzor tumanidagi 162-umumta'lim maktabining 6-«A» sinfi o'quvchisi. U maktabda a'lo baholarga o'qish bilan birga, jamoat ishlarida ham faol ishtirok etadi.



Ayniqsa, ona tili va adabiyot fani uning jon-u dili. Qishki ta'til kunlarida bu fandan o'tkazilgan «Bilimlar bellashuvi»ning tuman bosqichida 1-o'rinni qo'lga kiritib, shahar bosqichiga yo'llanma oldi. Fotima bo'sh vaqtlarida kitob mutolaa qiladi, she'rilar mashq qiladi. 2013-yilda «Tafakkur» nashriyotida uning ilk kitobchasi dunyo yuzini ko'rdi. «Ko'klam zavqi» deb nomlangan ushbu she'riy to'plamda ijodkor qizimizning borliqni bolalar nigohi bilan kuzatishlari natijasida anglagan dil kechinmalari jamlangan.

Yaqinda Fotima Norqulova «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati

Markaziy Kengashi, O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim, Madaniyat va sport ishlari vazirliklari bilan hamkorlikda tashkil etilgan «Kamalak yulduzlari» bolalar ijodiyoti festivalining respublika bosqichida muvaffaqiyatli qatnashib, «F» – she'riyat yo'nalishida g'olib deb topildi va diplom hamda esdalik sovg'alari bilan taqdirlandi.

– Bugun yurtimizda biz yoshlarning chet tillarini mukammal o'rganishimizga alohida e'tibor berilmoqda. Men ham bo'sh vaqtlarimda «Barkamol avlod» markazida tashkil etilgan ingliz tili to'garagiga qatnab, ustozlarimdan ushbu tilni chuqur o'rganmoqdaman, – deydi Fotimaxon.

Kelgusida huquqshunos bo'lishni orzu qilayotgan

NAVOIY BOBOM

*So'z mulkingning sultoni,
Qalbning jo'shqin vulqoni,
O'zbekimning qalqoni,
Buyuk Navoiy bobom.*

*Behisob g'azallari,
Ruboiy, asarlari,
Qaritar asrlarni
Buyuk Navoiy bobom.*

*Ruhi bizga yor bo'lgay,
Doim madadkor bo'lgay,
Har ishda hamroh bo'lgay,
Buyuk Navoiy bobom.*



iqtidorli qizimizga o'qish va ishlarida ulkan zafarlar yor bo'lishi-yu hayotda o'z o'rnini topishiga tilakdoshmiz.

E'tiboringizga Fotima Norqulovaning Alisher Navoiy bobomizga bag'ishlab yozgan she'rini havola qilaypmiz.

Dilorom HOTAMOVA

«BOLAJON» = BOLALARGA

Aziz o'quvchilar! Siz oynayi jahon orqali namoyish etilayotgan «Bolajon» telekanalining bir-biridan qiziqarli turkum ko'rsatuvlarini maroq bilan ko'rib borayotgan bo'lsangiz kerak-a?

Mazkur telekanal orqali berilayotgan turfa ko'rsatuvlar, atrof-olamni idrok etishingizda milliy qahramonlar, o'zbek va boshqa xalqlar dostonlari, epos va abertaklari personajlari misolida qalbingizda ezgulik va adolat tuyg'ularini shakllantirishga xizmat qilayotgan bo'lsa, ne ajab?! Ayniqsa, maktabgacha va kichik maktab yoshidagi bolajonlarga bilim beruvchi, aqlan rivojlantiruvchi intellektual o'yinlar va viktorinalar namoyishi, sizda aqliy hamda jismoniy mehnatning boshlang'ich ko'nikmalarini shakllantirishga yordam berayotganiga aminmiz. Eng muhimi, xorijiy tillarni o'rganishga bo'lgan qiziqishingizni rivojlantirishga qaratilgan maxsus o'quv teleko'rsatuvlar hamda

yanada badiiy, multiplikatsion va ma'rifiy filmlarni xorijiy tillarda, o'zbek tilidagi subtitrlar bilan namoyish etilayotgani ayni muddao bo'lyapti.

Aziz bolajonlar, biz sevimli nashringiz «Tong yulduzi» va «Bolajon» telekanali o'rtasida ijodiy hamkorlikni yo'lga qo'yish niyatidamiz. Gazetamiz orqali «Bolajon» telekanalida namoyish etiladigan eng qiziqarli teledasturlar va ko'rsatuvlar anonslarini berib borishni, shuningdek, ko'rsatuv orqali gazeta sahifalarida e'lon qilinarayotgan ertak, hikoya va rasmlarni namoyish qilib borishni rejalashtiryapmiz.

Bugun ushbu hafta davomida namoyish etiladigan



TABIATGA SAYOHAT

Bog'cha yoshidagi bolajonlar qalbida tabiatga mehr uyg'otish, hayvonot olami, o'simliklar dunyosini asrab-avaylash, shu bilan birga, ularni ingliz tilida qanday nomlanishini o'rgatish «Tabiatga sayohat» ko'rsatuvining asosiy maqsadidir. Ko'rsatuvning yanada qiziqarli bo'lishi uchun ijodkorlar tomonidan Baroqvoy va Tulkiniso obrazlari kiritilgan. Ingliz tili bo'yicha mutaxassis Sevara Usmonova esa Siz aziz bolajonlarning sevimli boshlovchilaringizdan biriga aylangan.

Tohir MULLABOYEV

SHOIRLARNING SULTONI

Shoirlarning sultoni,
Lol qoldirgan dunyoni,
Yaxshilikdir farmoni,
Mir Alisher bobomning.

Olam tan olgan daho,
«Xamsa»si to'la ma'no,
Besh dostonga besh baho,
Mir Alisher bobomning.

Kashf etar olam sirin,
Bilar hatto «Qush tili»n,
Poyoni yo'q bilimn,
Mir Alisher bobomning.

Har so'zi bir hikmatdir,
Ezgulikka da'vatdir,
Umr yo'li ibratdir,
Mir Alisher bobomning!



Barnoxon RAJABOVA,
Toshkent shahar, Yakkasaroy tumanidagi
26-umumta'lim maktabining 4-sinf o'quvchisi

ULAR HAR BAHORDA OCHILAR QIYG'OS

Senga bor qalbidma cheksiz muhabbat,
Sening ham mehringdan zo'r ilhom oldim.
Bag'ringda ulg'ayib, ijodkor bo'lib,
Bugun dil izhorim men she'rga soldim.

Ko'rk-u jamolingga to'yamay yashayman,
Qiyosingga aslo topolmam qiyos.
Poyingga mehrimdan gullar to'shayman,
Ular har bahorda ochilar qiyy'os.

Kamola KOMILXONOVA,
Toshkent shahar, Sergeli tumanidagi
300-umumta'lim maktabining 9-sinf o'quvchisi

Bugun 7-«D» sinfiga yangi o'quvchi keldi...

Sinf rahbari ko'rsatgan joyga omonatgina o'tirgan Mansur hammaning nigohi unda ekanligini sezib turardi. U yangi maktabga yuvilaverib yoqasi uniqib qolgan oq ko'ylagi, hozir hech qaysi bola kiymaydigan, akasidan qolgan ikki chiziqli shimi, ustidan chandib tikilgan qora poyabzalni kiyib borayotganidan xafa bo'lsa-da, ota-onasiga dilidagilarini sezdimadi. Ammo uning ko'nglidagini bilgandek:

– O'g'lim, sen aslo siqilma!
Insonni kiyimiga qarab emas, bilimiga qarab hurmat qilishadi.
Yaxshi o'qisang, bu maktabda ham hurmat qozonasan, do'stlar orttirasan, – deya uning ko'nglini ko'tardi mehribon onasi.

Hozir Mansur oyisining ana shu gaplarini eslab, o'ng'aysizlikdan qutulgandek bo'ldi.

OBRO'LI O'QUVCHI

(Hikoya)

– Nega endi u bo'lar ekan?
– Chunki u kecha opasining to'yida qildirgan soch turmagida kelibdi. Juda yarashibdi-a, qara, hamma uning atrofini o'rab olgan.

– Yo'g'-e, nima, seningcha, hammaning e'tiborida bo'lgan odam obro'li bo'ladimi? – so'radi ajablanib Nargiza.
– Unday bo'lsa, kel, ertadan sinfdoshlarimizni kuzatamiz, qani ko'raylik-chi, kim eng obro'li ekan...

Ertasiga to'rtinchi partadan joy egallagan ikki dugona – Dilfuza va Nargizaning qiladigan ishlari o'quvchilarni sinchkovlik bilan kuzatish bo'ldi.

Sinfga oxirgi rusumdagi yubka, qizil tufisiga mos qizil kofta kiygan Madina kirib kelganda, dugonalari atrofini o'rab olib, bunaqa bejirim kiyimni qayerdan olganini surishtirishardi.

– Ko'rdingmi, – gap boshladi Dilfuza ishonch bilan,
– bugun sinfimizdagi eng obro'li o'quvchi Madina bo'ladi!

– Bekor aytibsan, – e'tiroz bildirdi Nargiza va o'quvchilar birin-ketin kirib kelayotgan eshik tomonga ishora qildi, – Menimcha, bu Sarvar, ko'lidagi oxirgi rusumli telefonini qara.

Barcha sinfdoshlar Sarvarning atrofida aylana hosil qilishdi va katta ekranli telefondan turli g'aroyib roliklarni tomosha qila boshlashdi. Shu tobda xonaga kirib kelgan fizika fani o'qituvchisi sinfdagi tartibsizliklardan jahllanib stolga mushtladi. O'quvchilarni darsdan chalg'ituvchi matoh – telefonni

YURTIM

Vatanimni sevaman,
Bor mehrimni beraman.
Bog'larida quvnashib,
Gullarini teraman.
Olamda toki borman,
★ Vatanimdan qarzdorman.



Salohiddinxon FAXRIDDINOV,
Xalq ta'limi vazirligi tasarrufidagi xorijiy tillarga ixtisoslashtirilgan Davlat umumta'lim maktabining 5-«V» sinf o'quvchisi

Nevaralarim Rustamjon, Irodaxon, Davronjon, Temirtosh hamda Doniyorjonga

Olqor DAMIN

SOG'LOM BOLA

Qo'shiqlar aytgan bola,
Raqsga tushgan bola,
Rasmlar chizgan bola –
Sog'lom bola bo'ladi!
Yugurib yurgan bola,
Chiroyli kulgan bola,
Sho'xliklar qilgan bola –
Sog'lom bola bo'ladi!
Gul, ko'chat ekan bola,
Qo'zichoq boqqan bola,
Hammaga yoqqan bola –
Polvon bola bo'ladi!

BILIM

Men bilimman, bilimman,
Elning jon-u diliman.
Orzularga eltaman
Ushlasangiz qo'limdan.
Men bilimman, bilimman,
Tilaklar oq, yo'lim oq,
Sizni chin Inson etish –
Kelar mening qo'limdan.
Men bilimman, bilimman,
Kitob – bog'ning guliman.
Go'zallikni sevsangiz,
Teravering, erinmang!

«6» BAHO

Do'mboqqina bolaman,
Nuqul «2» olaman.
Bu ham kamlik qilganday,
Partalarni chalaman.
Uyga qarab chopishda
«6» baho olaman!



Sarvarning qo'lidan olib qo'ydi. So'ngra, formasiz kelgani uchun Madinaga tanbeh berdi. Sinfda pashsha uchsa eshitilgudek tartib o'rnatilgach, o'zlash-tirilgan bilimlar bo'yicha nazorat ishi boshlandi.

– Qara, Nargiz, hamma yangi boladan ko'chiryapti, u kecha sinf rahbarimizdan maqtov eshitgandi, – dedi Dilfuza dugonasini turtib. – Yur, biz ham ko'chiramiz.

– E, qo'ysangchi o'shani, Dilfuz. Kelib-kelib kiyim-boshi bir ahvol boladan ko'chiraymi? Hechamda!..

Bir haftadan so'ng Madinadan ham obro'lir o'q bo'lish uchun oyisiga yalinib, bozorning eng oldi kiyimlarini oldirgan Nargiza hamma ko'rsin uchun atayin darsga kech qolib keldi. Ammo hech kim unga parvo qilmadi. O'quvchilar doskadan kimyoga oid nazorat savollarini ko'chirish bilan band edilar. Shu payt eshik ochilib, kotiba qiz ko'rindi:

– Saodat opa, sizni direktor chaqiryapti, – deya shoshilganicha ortiga qaytdi. O'qituvchining chiqib ketganidan «unumli» foydalangan o'quvchilar uchinchi partaga yopirildilar. O'tgan hafta fizika fanidan o'tkazilgan nazorat ishidan «2» baho olgan Nargiza allaqachon Mansurning yonidagi o'rindiqni egallagan edi...

Afifa DILSO'Z

(Davomi. Boshi 1-betda)

Darhaqiqat, o'tgan yillar mobaynida farzandlarimizni sportga keng jalb etish, ular orasida sog'lom turmush tarzini targ'ib etish borasida noyob tizim yo'lga qo'yildi. Yoshlar o'rtasida sportni ommalashtirishdek ezgu ish milliy harakatga aylandi. Natijada, unib-o'sib kelayotgan yosh avlod orasidan nafaqat respublika, balki dunyo miqyosidagi yirik sport musobaqalarida ham munosib ishtirok etadigan chempionlar yetishib chiqmoqda.

Birgina o'tgan 2013-yilda qo'lga kiritilgan g'alabalarni sarhisob qilsak, qalbimiz g'ururga to'ladi. Jumladan, olti yoshli shaxmatchimiz Islombek Sindorov Eronda o'tkazilgan Osiyo chempionatida uchta oltin medalni qo'lga kiritdi. Futbol bo'yicha O'zbekiston

yoshlar va o'smirlar terma jamoalari jahon chempionatida munosib ishtirok etib qaytishdi. Poytaxtimizda o'smirlar va qizlar o'rtasida og'ir atletika bo'yicha IV jahon chempionatida umidli yosh atletimiz Mashhurbek Yo'ldoshev bronza medalini qo'lga kiritdi. Bu g'alabalarning

musiqa va san'at maktablari qurilib, foydalanishga topshirildi. Ushbu inshootlarning 132 tasi qishloq joylarida ishga tushirildi. Bu ezgu maqsadlar uchun 210 milliard 400 million so'm mablag' sarf etildi.

Aziz o'quvchilar, bugun siz ham qishlog'ingiz yoki shahringiz, ta'lim olayotgan o'quv dargohingizda zamonaviy sport inshootlari, suzish havzalari, o'yingohlar bunyod etilayotganiga guvoh

BARKAMOL YOSHLAR — ERTAMIZ ISHONCHI



OLMOS olgan suratlar

2014-yilda 115 ta sport obyekti va 48 ta bolalar musiqa va san'at maktablarini qurish hamda rekonstruksiya qilish, ularni zarur anjom va uskunalar bilan ta'minlash rejalashtirildi.

Bugungi kunda bolalar sporti obyektlaridagi 120 turdagi sport inventarlari va uskunalarining 116 tasi mamlakatimiz korxonalarida ishlab chiqarilmoqda.

Ayni paytda yurtimizda 2 millionga yaqin bola sportning 30 dan ziyod turi bilan muntazam shug'ullanmoqda.

Bitta sport inshootidan o'rtacha kunlik foydalanish vaqti 9,5 soatni tashkil etmoqda.

bari so'zsi yurtimizda yosh avlod kamoloti yo'lida yaratib berilayotgan shart-sharoitlar mevasidir.

Shu o'rinda aytib o'tish kerak, o'tgan 2013-yilda bolalar sporti obyektlari, musiqa va san'at maktablari barpo etish, rekonstruksiya qilish va kapital ta'mirlash ishlari izchil davom ettirildi. 113 ta sport inshooti va suzish havzasi, 55 ta bolalar

bo'layotgandirsiz. Bularning bari yurtimiz ertasi bo'lgan Siz aziz yoshlarning kamolotingiz yo'lida qilinayotgan ezgu sa'y-harakatlardir. Shunday ekan, sport doimiy hamrohingiz bo'lsin! Zero, sport salomatlik garovi.

Sa'dullo TURSINOV

QILICHBOZLAR MAHORATI

Bolajonlar, «iloh mushketyor» badiiy filmi barchangiz katta qiziqish bilan tomosha qilsangiz kerak-a? Ayniqsa, film qahramonlarining mahorati bilan qilich o'ynatishlarini ko'rib, siz ham ulardek abjir qilichboz bo'lishni orzu qilgan bo'lsangiz, ajabmas.

Buni qarangki, sportning qilichbozlik turiga o'g'il bolalar qatorida qizlar ham qatnashishar ekan. Biz O'zbekiston qilichbozlik federatsiyasida bo'lib, sportning mazkur turi bilan shug'ullanayotgan tengdoshlarimizni suhbatga tortdik.



— Bolaligimdan qilichbozlikka qiziqardim. Bu qiziqishim meni mazkur federatsiya qoshida ochilgan qilichbozlik to'garagiga yetakladi. Sportning bu turi bilan shug'ullanayotganimga 4 oy bo'lgan bo'lsa-da, murabbiyimiz Shavkat aka Turdiqulovdan qilichbozlikka oid ko'p narsalarni bilib oldim. Avvalo, raqibimning xatti-harakatlarini yaxshilab o'rganib, unga to'satdan hujum qilishni o'zlashtirdim. Kelajakda xalqaro musobaqalarda qatnashib, murabbiyim ishonchini oqlash niyatidaman, — deydi Chilonzor tumanidagi 178-maktabning 8-sinf o'quvchisi Iroda Suyundikova.



Yurtimiz sharafigini ko'kka ko'tarishni niyat qilgan bu kabi yoshlarga havas qildik. Bo'lajak bellashuvlarda zafarlar tilab, ular bilan xayrlashdik.

**Ozoda TURSUNBOYEVA.
Suratlar muallifi: Zuhra NISHONOVA**



— Sportning bu turi insondan iroda va sabrni talab qiladi. Akam Saidbek Simbayev bir necha yillardan buyon qilichbozlik bilan shug'ullanib, ko'plab musobaqalarda qo'li baland kelgan. Men ham akam singari ushbu sport turining shpaga yo'nalishi bo'yicha o'tkaziladigan xalqaro musobaqalarda yurtimiz bayrog'ini ko'klarga ko'tarmoqchiman, — deya suhbatimizga qo'shildi andijonlik tengdoshingiz Asadbek Mamatov.

— Qilichbozlik bilan shug'ullanadigan inson kuchli, irodali va mergan bo'lishi lozim, — deydi Farg'ona viloyatining Qo'qon pedagogika instituti qoshidagi 1-akademik litsey o'quvchisi Shodmonoy Abdug'aniyeva. — Murabbiyimiz Gulmira opa Ziyayeva bizdan doimo diqqatni bir yerga jamlashni, o'z ustimizda ko'proq ishlashimizni talab qiladilar. Yirik musobaqalarda g'alaba qozonish uchun tinmay mashq qilishimiz kerak. Kelajakda terma jamoaga a'zo bo'lib, olimpiadada qatnashishni orzu qilaman.

JONIVORLAR OLAMI



Aziz bolajonlar! Bu yil muchal hisobi bo'yicha Ot yili kirib kelganini yaxshi bilasiz-a? Bugun Sizga insonlarning eng yaqin do'sti, ular mehnatini yengillashtiradigan, turli sirk tomoshalarida ajoyib harakatlar bajarib, sizga zavq ulashadigan bu jonivor haqida ma'lumot bermoqchimiz.

Ot - toq tuyoqlilar turkumiga kiruvchi jonivor hisoblanadi. Qadimda otlar yovvoyi holda Yevropa, Osiyo va Afrikada uyur bo'lib yashashgan. Xonaki otlar esa Markaziy Osiyo va Yevropaning janubi-sharqiy qismida miloddan avvalgi uch ming yillikda paydo bo'lgan bo'lib, ular tarpan deb yuritiluvchi yovvoyi ot zotidan tarqalgan.

Hozirgi otlarning tana uzunligi ikki yarim metr, balandligi esa ellik santimetrdan bir yuz sakson santimetrgacha yetadi. Bu jonivorning vazni turiga qarab oltmish kilogrammdan bir ming besh yuz kilogrammgacha yetishi mumkin. Eng kichik otning nomi esa poni ekanligini juda yaxshi bilsangiz kerak. Tanasining

rangi qora, jigarrang, qizg'ish malla, oq, kulrang tusdagi otlarni ko'rgansiz-a?

Bilasizmi, bolajonlar, otda shartli refleks juda tez paydo bo'lar ekan. Shuning uchun bu jonivor qo'lga tez o'rganadi. Og'ir yuk tashiydigan ot zoti o'n olti tonnagacha, rekordchi ot esa yigirma tonnadan ortiq yukni tortishi mumkin. Shunga yarasha yaxshi oziqlanishi lozim bo'lgan bu jonivor o'txo'r hisoblanadi. U bir kecha-kunduzda yigirma besh kilogrammdan yuz kilogrammgacha o'tni iste'mol qilishi mumkin. Shuningdek, u yoz faslida o'rtacha o'ttiz litrdan oltmish litrgacha, qishda esa yigirma besh litrgacha suv ichar ekan. Ot turli o'tlardan tashqari, suli, arpa, javdar, makkajo'xori

doni va kunjara bilan oziqlanadi. Bu jonivor to'g'risida gap ketganda, sizni ham quyidagi ma'lumot qiziqтира kerak-a? Hech o'ylab ko'rganmisiz, ot qanday qilib suvluq yordamida boshqariladi? Gap shundaki, bu jonivorning ustki va pastki jag'laridagi qoziq va jag' tishlari orasida tishsiz joy bo'lar ekan. Ana shu bo'shliqdan o'tkazilgan suvluq yordamida otning harakati va yo'nalishi boshqariladi. Otning urg'ochisi biya deb ataladi va u yilda bir marta bolalaydi. Yangi tug'ilgan ot bolasi qulun, ikki yoshida toychoq, uch yoshida g'o'non va to'rt yoshida do'non deb ataladi. Bu jonivor o'rta hisobda yigirma besh yil, ba'zan qirq yilgacha yashaydi. Bugungi kunda dunyoda ikki yuz ellikdan ortiq ot zotlari mavjud.

ZUBAYDA tayyorladi

ONA ZAMIN NE'MATLARI

Aziz bolajonlar, qish kunlarida tumov, shamollash kasalliklari tez-tez uchrab turadi-a? Bunday paytda malina va limonli choy, na'matak



damlamasi yaxshi yordam berishini bilasiz. Shuningdek, poliz mahsulotlari ham bu xastalikka yaxshigina davo bo'lishini bilib qo'ysangiz, foydadan xoli bo'lmaydi.

Sholg'om shifo bo'ladi

Sizni shamollashning asoratlardan biri surunkali yo'tal bezovta qilsa,



sholg'om yaxshi yordam beradi. Buning uchun sarxil sholg'omning suvini siqib, 1 osh qoshiqdan kuniga 3-4 marta ichish tavsiya etiladi. Katta yoshdagilar esa 2 osh qoshiqdan kuniga 5-6 mahal ichishlari mumkin.

Turpni ham sinab ko'ring

Kattagina dumaloq shakldagi turpni olib, ichini o'ying. So'ng, toza asaldan



1 osh qoshiq solib, ustini sochiq bilan o'rab qo'ying. Ertalab nahorga turp sharbatini iching. Bu muolajani kamida 3-4 kun takrorlasangiz, albatta, samarasini sezasiz.

Manzura UBAYDULLAYEVA tayyorladi

peyvand qisqor

Aziz qizlarjon! Mehnat daralarida

ustozlaringizdan anchagina

salat-u pishiriqlar tayyorlashni

o'rganib olgan bo'lsangiz kerak-a?

Biz bugun ushbu ruknimiz orqali

sizlarga tavsiya qilmoqchi bo'lgan

quyidagi ajoyib salatni ham o'rganib oling.



TOPISHMOQLAR

To'rt qoziq, hammaga oziq.



Qachon yettini ko'rib, to'qqiz deymiz?

TEZ AYTIHLAR

Aslning asali shirin, Asalning asili shirin.



Sarvar sabzilarni kavlab olyapti, Sayyora saralab savatga solyapti.

Anvar bog'dan anor terdi, Anoridan Anoraga berdi.



NARGIZA tayyorladi

TOVUQ VA ANANASLI SALAT

Salat uchun kerakli masalliqlar:

350 gramm tovuq go'shti, 100 gramm ananas, 100 gramm qo'ziqorin, 2 dona tuxum, 200 gramm mayonez, 1 dona shirin-nordon olma, limon parraklari, 2 qoshiq zaytun yog'i, sarimsoq piyoz, salat bargi va 100 gramm konservalangan jo'xori.

Tayyorlanishi:



Tovuq tuzli suvda yumshoq qilib pishirib olinadi va somoncha shaklida to'g'raladi. Qo'ziqorinni esa parrak-qilib kesib, sarimsoq piyoz bilan birga zaytun yog'ida biroz qo'vurib, so'ng 10 daqiqa dimlash lozim. Qaynatilgan tuxum, ananas, olma va barcha masalliqlar to'rtburchak shaklida to'g'ralib, mayonez bilan aralashiriladi. So'ng, tayyor salatimiz rayhon, salat bargi, limon parraklari bilan bezatilib, likopchada dasturxonaga tortiladi.

Yoqimli ishtaha!

Muassislar:

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi, O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, «KAMOLOT» yoshlar ijtimoiy harakati Markazi Kengashi, «SOG'LOM AVLOD UCHUN» hukumatga qarashli bo'lmagan xalqaro xayriya jamg'armasi.

Bosh muharrir
Feruza JALILOVA

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida 0208-raqam bilan 2007-yil 2-fevralda ro'yxatdan o'tgan.

TAHRIR HAY'ATI:
Omonulla YUNUSOV,
Abdug'ani XOLBEKOV,
Bahodir G'ANIYEV,
Svetlana INOMOVA,
Murtazo SULTONOV,
Zoir ISAJONOV,
Sa'dullo TURSINOV
(Bosh muharrir o'rinbosari),
Feruza ADILOVA
(mas'ul kotib),
Sobitxon TURG'UNOV,
Zikrilla TESHABOYEV

Navbatchi muharrir
Dilorom HOTAMOVA
Rassom
Feruz MATYOQUBOV
Dizayner
Olovuddin ORIPOV

Manzillimiz:
Toshkent shahri,
Navoiy ko'chasi, 30-uy.
Indeks: 100129.
Obuna indeksi: 198.
e-mail:
info@tongyulduzi.uz
www.tongyulduzi.uz

Tel: 244-63-08
Tel./faks:
(99871) 244-38-10

«O'zbekiston» NMIUda chop etildi.
Tahririyatga kelgan barcha qo'lyozmalar tahrir qilinadi, mualliflarga qaytarilmaydi.
Haftaning dushanba kuni chiqadi.
Shakli A-3, 2 bosma taboq.
ISSN 2010-6092
Adadi - 52911
Buyurtma N: J 9098